



HUJJATLARDAGI REKVIZITLAR TEXNIK-KRIMINALISTIK EKSPERTIZASINING OBYEKTI SIFATIDA

Qirg'izboyev Ma'rufjon Odiljon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichi ishlar vazirligi
Akademiyasi Krminalistik ekspertizalar
kafedrası o'qituvchisi, katta leytenant
+998 94 174 50 40

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20566677>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil
Ma'qullandi: 28-may 2026 yil
Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

KEY WORDS

*kriminalistika tarixi, raqamli
kriminalistika, kompyuter
jinoyatlari, kiberhujum, statistika.*

ABSTRACT

*Ushbu maqola hozirgi kunda eng dolzarb bo'lib
kelayotgan Hujjatlardagi rekvizitlarning texnik
kriminalistik tadqiqotlarini takomillashtirish
mavzusida bo'lib unda yangi texnologiyalar hamda
raqamli kriminalistika to'g'risida so'z boradi..*

Har bir hujjat shunday rasmiylashtirilgan bo'lishi kerakki, unda amalga oshirilgan muomalalar haqida to'la - to'kis fikrga ega bo'lish va uning isbotlovchi kuchini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar mavjud bo'lsin. Hujjatlarning tarkibiy unsurlari hisoblangan bu ma'lumotlar uning rekvizitlari deb nomlanadi. Rekvizit (lotincha reqnisitum) - bu kerakli, talab qilinadigan degan ma'noni anglatadi. O'z xususiyatiga ko'ra rekvizitlar har xil bo'ladi. Ular o'zlarida aks ettirilgan hujjatlarning vazifalari va muomalalarning mazmuniga bog'liq. Mutlaqo aniqki, masalan, ishchiga ish haqi hisoblashni rasmiylashtiradigan hujjat (ishbay ishiga naryad)ning rekvizitlari, to'lov talabnomasi (tovarlarning sotilishini qayd etilgan hujjat)ning rekvizitlaridan, albatta farqlanadi.

Lekin har xil hujjatlarning mazmunidagi katta farqlarga qaramasdan, har qanday muomalani buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun zarur bo'lgan rekvizitlar mavjud bo'lishi kerak. Zaruriy xollarda hujjatlarda qo'shimcha rekvizitlar ham aks ettirilishi mumkin. Masalan, hujjat tartib raqami, korxona nomi va manzili, jarayonni sodir etilishi uchun asos, hujjatlashtirilayotgan jarayonni aniqlashga mo'ljallangan boshqa rekvizitlar. Buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilgan sharoitlarda hujjatlar rekvizitlari kod ko'rinishida aks ettirilishi mumkin.

Hujjatlardagi rekvizitlar aniq va to'g'ri holda, kimeviy qalamda, sharikli, siyohli ruchkada, yozuv mashinalari orqali aks ettirilishi mumkin. Hujjatlardagi yozuvlarni oddiy qalamda yozishga ruxsat etilmasligiga sabab, hujjatlarni arxivlarda uzoq saklanishi davomida yozuvlarni to'liq saklanishini ta'minlashdir. Hujjat davomida blankalardagi maxsus qatorlarda bo'sh qolgan qatorlarga albatta chiziqli tortilishi kerak, bu bilan mumkin bo'lmagan yozuvlar oldi olinadi. Hujjatlarda albatta, ulardagi yozuvlar xaqiqiyatini tasdiqlash huquqiga ega shaxslar bo'lib, ular soni, ro'yxati korxona raxbari tomonidan tasdiqlanadi. Qimmat va juda kamyob moddiy boyliklar berilishi rasmiylashtiriladigan hujjatlarga imzo chekish huquqiga ega shaxslar chegaralangan bo'lishi kerak. Hujjatlarda o'chirib yozishlar bo'lishi mumkin emas,

zaruriyat tug'ilib qolganda esa, tuzatish imzo va so'z bilan tasdiqlab qo'yilishi shart. hujjatlarda bo'yab, noaniq yozuvlar bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Amaldagi sohaviy prosessual qonunchilikda ekspertiza tadqiqotlari va uning bosqichlari, jumladan ekspert eksperimentini o'tkazish jarayonlarini qayd etish imkoniyatini bevosita nazarda tutuvchi normalar mavjud emas.

Biroq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21 fevraldagi 73-son qarori bilan tadsiqqlangan "Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risida Namunaviy nizom"da "Agar sud eksperti xulosasida va mutaxassis fikrida tadqiqotlar va uning natijalarini tasvirlovchi fotojadvallar, diagrammalar, chizmalar va shu kabi ilovalar berilsa, ular ham sud eksperti (sud ekspertlari) tomonidan imzolanadi. Sud eksperti tadqiqotlarining borishi, sharoitlari va natijalarini hujjatlashtirish materiallari sud eksperti xulosasi nusxasi bilan birga ekspertiza tashkilotida saqlanadi. Bundan raqamli (elektron) ma'lumotlar mustasno. Ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs), advokat yoki tegishli jismoniy yoxud yuridik shaxsning talabiga ko'ra yig'majildga qo'shib qo'yish uchun taqdim etiladi" [1] deb ko'rsatilgan. Professor G'.Abdumajidov "Dalillarni qayd etish deganda, ularni u yoki bu usul bilan mustahkamlab qo'yish tushuniladi. Bunda dalillarning mohiyatini fakat tergovchilar idrok etib qolmay, jinoyat ishini o'rganishda va sud muhokamasi chog'ida u bilan tanishayotganlar uchun xam tushunib olish oson buladi. Qayd qilish hamma hollarda xam ilmiy asoslangan, amaliy tushunish, shu asosda voqelikni to'g'ri aniqlash uchun imkon berishi kerak" [4, B.8] deb yozgan. Ye. Kapitonov va A.K. Sergeevlar esa "Kriminalistik qayd etish — izlarda va boshqa ob'ektlarda mavjud kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni kriminalistik-texnik vositalar va usullar yordamida aniq, to'liq, ob'ektiv va ko'rgazmali ravishda ifodalashdir" [5, S.120] deb fikr bildirganlar. X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi mutaxassislari – 43 nafar) o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovlarida "Eksperiment o'tkazishda qanday texnik vositalar va texnika namunalaridan foydalanasiz?" degan savolga respondentlarning 50,2 foizi "standart texnikalar (raqamli fotoapparat, kompyuter, yoritgichlar va h.k.)", 49,8 foizi "standart o'lchov vositalari (shatngensirkul, chizg'ich, ruletka, voltmetr va h.k.)" deb javob berganlar. Respondentlar tomonidan "aniq bir vazifani hal qilishga mo'ljallab texnik va dasturiy vositalar ishlab chiqilmagan" deb javob berganlar.

Natijalar va muhokama: O'zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika markazi mutaxassislari tomonidan olib borilayotgan hujjatlarning texnik-kriminalistik tadqiqotlari bo'yicha profilaktik ishlarning tahlili ko'rsatadiki, ushbu turdagi faoliyat, yuqoridagi tashkiliy tadbirlarni hujjatlarni himoyalash bo'yicha quyidagi texnik usullar bilan birgalikda amalga oshirilganda samarali bo'lar ekan:

- hujjat mazmuniga qo'shimcha rekvizitlar (masalan, to'lov hujjatlari yoki pul olish vedomostlariga – oluvchining qisqartirishlarsiz imzosini qo'yish uchun alohida ustun) kiritish;
- hujjatlarning yangi soddalashgan yangi turlarini ishlab chiqish (masalan, dori vositalariga yangi shakldagi resept blanki);
- ayrim turdagi hujjatlar uchun himoya metodi va vositalarini tegishli manfaatdor tashkilotlar birgalikda ishlab chiqish va joriy etish;
- O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi tasviri tushirilgan muhr shakllarini ishlab chiqish bo'yicha davlat standartlarini ishlab chiqish. Hujjatlar rekvizitlari (qo'lyozma yozuvlar, imzolar, fotosuratlar, muhr akslari)ning qalbakilashtirishga bo'lgan mustahkamligini oshirish

maqsadida yozuv materiallarining yangi turlari shaklida juda ko'plab yangi metodlar va texnik usullar ishlab chiqilgan.

Masalan, hozirgi kunda keng tarqalgan yozuv materiali – nusxa ko'chiruvchi qog'ozning bo'yog'i hujjat tagligidan osongina o'chiriladi. Yoki bo'lmasa, o'tgan asrning 60 yillarida ishlab chiqilgan va hozirgi kunda ham butun dunyoda qo'llanilayotgan yangi bir metod – tegishli kimyoviy reaktivlar bilan ishlov berilgan maxsus qog'oz ham yaxshi samara bermoqda. Bunday qog'ozning ikki varag'i ishlov berilgan tomoni bilan birlashtirilganda va yozuv qurilmasining bosimi ta'sirida, varaqlar orasidagi shtrixlarda varaqlardagi kimyoviy moddalar orasida reaksiya yuz beradi. Bunda ikkinchi varaqda turli (ko'k, yashil va boshqa rang) rangdagi matn hosil bo'ladi. Bu moddalar bo'yoqlarining yuqori mustahkamligi ularni hujjatni buzmasdan o'chirib tashlash imkoniyatini bermaydi. bu kabi qog'ozlar, masalan AQShning boshqa davlatlardagi elchixonalarida, turli hujjatlar tayyorlashda ishlatiladi. Hujjatning qalbakilashtirilishi oson bo'lgan rekvizitlaridan biri bu – fotosurat hisoblanadi. Fotosuratlar odatda hujjatlarda elimlash orqali yopishtiriladi va muhr bilan tasdiqlanadi. Zamonaviy kompyuter texnikalari hujjatning fotosurat yopishtirilgan varag'ini raqamli elektron maketini tayyorlash imkoniga ega. Bunday elektron maketni rangli bosma qurilma (printer)da bosib chiqarish usuli hujjatdagi fotosuratni almashtirish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Ma'lumki, hujjatga muayyan o'zgartirishlar atayin, g'arazli maqsadda emas, balki hujjatdagi yozuv materiallarining o'zgarishiga olib keluvchi tabiiy omillar ta'sirida ham bo'lishi mumkin. Shu bois, hujjatlarni himoyalashning umumiy vazifasi – hujjatning har qanday ta'sirlar va o'zgarishlarga chidamligini oshirishdir.

Kriminalistika fani va ekspert amaliyoti hujjatlar materiallari – qog'oz, mate shtrixlari, muhr akslari va boshqalarni mustahkamligini oshirish uchun bir qator tavsiyalar beradi. Ammo himoyalashning bu turlari ularni qalbakilashtirishni qiyinlashtiradi, hujjatlarni qalbakilashtirishdan to'liq himoya qilish va uni tabiiy omillardan saqlash uchun hujjatning sirtiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini bartaraf etishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun oxirgi vaqtlarda hujjatlarning sirtini turli polimer mahsulotlar bilan qoplash – laminasiya qilish keng tarqalgan. Uning asosida hujjat qog'ozini plyonka bilan issiqlik ta'sirida va biroz bosim ostida payvandlash yotadi. Bunda issiqlik ta'sirida erigan plyonka hujjat sirtini qoplabgina qolmasdan, qog'oz tolalari bilan mustahkam mahkamlanib qoladi. Plyonkaning eritish harorati issiqlik 1200S dan ortadi va buning uchun maxsus qurilma – laminatorlar ishlatiladi. Hujjatlarning ayrim lavhalarini bajarilish ketma-ketligini o'zaro kesishuvchi shtrixlar bo'yicha aniqlash tadqiqotlarida turli siyohlar, tush, sharikli ruchka pastasi, qalam, flomaster, shtempel bo'yog'i va boshqa shu kabi bo'yoqlar bilan bajarilgan shtrixlar tekshirilishi mumkin. Bo'yoqning qog'oz bilan o'zaro ta'sirlashishi ko'phollarda bo'yoqning yopishqoqligi, uning kislota-ishqor (rN) muhitiva qog'ozning zichligiga bog'liq bo'ladi. Qog'oz g'ovak material bo'lgani uchun, bo'yovchi moddalar, masalan, siyoh varaqning ichiga kirib boradi, shtrixning bo'ylama o'qidan chetga qarab yoyiladi. Ayniqsa, eski yoki yopishqoqligi past bo'lgan qog'ozlarga bo'yovchi modda chuqur kirib boradi. Shu bilan birga, bo'yoqning qog'oz ichiga kirib borishi, yozuvni bajarishda ishlatilayotgan yozuv qurilmasining qog'oz bilan ta'sirlashuvchi qismining tuzilishiga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, ruchkaning perosi (uchi) o'tkir bo'lsa, uning ta'sirida qog'oz sirti buzilishga uchraydi va siyoh ushbu buzilgan sohalarga shimib ketiladi. Shtempel bo'yog'i va sharikli ruchkalarning pastasi esa siyohga qaraganda ko'proq yopishqoqlikka ega bo'ladi. Shu bois, sharikli ruchkaning pastasi qog'ozda notekis taqsimlanadi. Sharikli ruchkaning

harakatiga perpendikulyar joylashgan qog'oz tolalari boshqalarga qaraganda intensivroq bo'yaladi. Yoysimon shtrixlarda esa odatda uzilishlar kuzatiladi

— Qalam yoki nusxa ko'chiruvchi qog'ozlar yordamida bajarilgan shtrixlarda bo'yoqlar qog'ozning sirtidagina joylashadi. Shtrixlarning o'zaro kesishgan joylarda, shtrixlarning yozuv materiallari o'zaro ta'sirlashadi va bunda birinchi va ikkinchi shtrixlarning bajarilish sharoitlari turlicha bo'ladi. Ushbu omillar shtrixlarning o'zaro kesishgan joyidagi butun manzaraga ta'sir ko'rsatadi va unga o'ziga xos xususiyatlar beradi. Undan tashqari, kesishish nuqtasidagi ushbu manzaraga, birinchi va ikkinchi shtrixlarni bajarilishi orasidagi o'tgan vaqt ham ta'sir ko'rsatadi. Agar yuqorida joylashgan shtrix hali qurishga ulgurmagan pastdagi shtrixni kesib o'tgan bo'lsa, u holda kesishish nuqtasida ularning materiallari aralashib ketadi, shtrixlar orasidagi burchaklar noaniq bo'ladi. Natijada shtrixlarning bajarilish ketma-ketligini aniqlash bo'yicha vazifani bajarish yanada qiyinlashadi.

O'zaro kesishuvchi shtrixlarning tadqiqotlariga oid kriminalistik adabiyotlarda, ushbu turdagi tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha juda ko'plab metodikalar yoritilgan hamda bu metodikalar asosida o'zaro kesishuvchi shtrixlar tadqiqotlari bo'yicha samarali va ijobiy natijalarga erishish mumkinligi ta'kidlangan. Ekspert amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zaro kesishuvchi shtrixlarning bajarilish ketma-ketligini xronologik tartibini aniqlash bo'yicha qo'llaniladigan metodlarning qat'iy shaklda xulosa berishga imkon yaratuvchi turlari quyidagilar hisoblanar ekan: mikroskopiya, qizil va infraqizil sohadagi lyuminessensiyaning mikrosuratga olish, nusxa ko'chirish, adsorbsion-lyuminessent metod, shtrixlar kesishgan joylarni kimyoviy ishlov berish. Mikroskopik metodlar ekspert amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan metod bo'lgani uchun, uni batafsil ko'rib chiqamiz. O'zaro kesishuvchi shtrixlarning bajarilish ketma-ketligini aniqlash uchun qo'llaniladigan mikroskopik metod eng soda, tezkorva tekshirilayotgan hujjatni o'zgartirmaydigan metod hisoblanadi. Ushbu metodni qo'llab tegishli tadqiqotlarni o'tkazish uchun ekspert ixtiyorida stereoskopik tasvir hosil qiladigan mikroskop (masalan,

MBS)ning mavjud bo'lishi etarli bo'ladi. Mikroskop bilan ishlash turli intensivlikdagi yorug'lik hamda o'tuvchi va qaytuvchi nurlar bilan amalga oshiriladi. Tekshirilayotgan hujjatga qiya tushuvchi yorug'lik ostida mikroskopik tadqiqotlar ham yaxshi natija beradi. Shuningdek, tik tushuvchi yorug'lik va qutblangan yorug'likdan ham foydalanish tavsiya etiladi, bunda shtrixlarning yorug'likni turlicha qaytarish xususiyatlaridan foydalanish lozim. Shtrixlarning yorug'likni qaytarish xususiyatlari, tekshirilayotgan shtrixlarning butun uzunligi bo'ylab va yorug'likning yo'nalishini o'zgartirib tekshirilishi kerak bo'ladi. Tadqiqotlarda mikroskopik metodni qo'llash ekspertga, o'zaro kesishuvchi shtrixlarning bajarilish ketma-ketligini ifodalovchi quyidagi belgilarni aniqlashga imkon beradi:

Xulosa: Hozirda ekspertiza amaliyotida qo'llanilayotgan texnologiyalarni kengaytirish va mukammallashtirish va, shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni sud-ekspertizasi ehtiyojlariga moslashtirish kerak. Bu sohani yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ekspert muassasalarining umumiy ixtisoslashtirilgan axborot-kommunikatsiya tarmog'ini yaratish yo'li bilan foydalanilayotgan axborot tizimlarini integratsiyalash, internet tarmog'idagi jinoiy ko'rinishlarga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan yangi ekspertiza usullarini ishlab chiqish, eng so'nggi texnologiyalardan foydalanishdan iborat bo'lib, raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish kerak.

Manbalar:

1. Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risida Namunaviy nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21 fevraldagi "Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namnaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 73-son qarori / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2023 y., 09/23/73/0098-son. // <https://lex.uz/uz/docs/6388692>.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2019. 184-m. / O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 2017 y., 1-son, 1- modda, 13-son, 194-modda, 24-son, 487-modda, 36-son, 943-modda, 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.02.2021 y., 03/21/673/0112-son; 18.02.2021 y., 03/21/675/0126-son.
3. R.S. Belkin. Kriminalistika. 2001: [Elektron resurs]. URL: <http://be5.biz/pravo/k023/11.html>.
4. Kriminalistika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / Mualliflar: G'. Abdumajidov va boshk. – T.: "Adolat", 2003. – 362 b.
5. V.E. Kapitonov, A.K. Sergeev. Sredstva i metodi viyav-leniya, fiksasii i iz'yatiya sledov ruk. – M., 2005. – S.120.
6. Kriminalistika va ekspertiza. Darslik. yu.f.n. prof. v.b. D. Bazarova, yu.f.d. dos. I.R. Astanov. – Toshkent: TDYuU, 2020. – b.618.
7. A.X. Trigulova. Ekspertnoe issledovanie kak prosess poznaniya: diss. kand. yurid. nauk. – T., 1987. – S.117.
8. V.V. Bushuev. Innovasionnie texnologii v sudebno-ekspertnoy deyatel'nosti // Vestnik Akademii ekonomicheskoy bezopasnosti MVD Rossii / Materiali XVIII Vserossiyskogo kruglogo stola «Innovasionnie texnologii v sudebno-ekspertnoy deyatel'nosti», 2015. №2. – S.6-11;
9. V.V. Bushuev. Effektivnost sudebno-ekspertnoy deyatel'nosti: problemi i puti resheniya (v soavt. s T.V.Demidovoy) // Vestnik Moskovskogo universiteta MVD Rossii. – M., 2017. №2. – S.43-45;
10. E.P. Ishenko. Evolyusiya organizovannoy prestupnosti v sifrovuyu epoxu (v soavtorstve s P.P. Ishenko) // Biblioteka kriminalista. Nauchniy jurnal. – M., 2016. №6(29). – S.222-231;
11. E.P.Ishenko. O nasushnix problemax raskritiya i rassledovaniya prestupleniy // Vestnik Vostochno-Sibirskogo instituta MVD Rossii, 2017. №3(82). – S.129-138.
12. N.A. Trushakova. Ispolzovanie spetsialnix pocherkovedcheskix znaniy v neprotsessualnoy forme: ot teorii k praktike // Vestnik Moskovskogo universiteta MVD Rossii, 2017. №2. – S.102-104.